



1991-yildan
chiqa boshlagan

2020-yil. 2-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz

Shavkat MIRZIYOYEV:

Abdulla Qodiriy ijod maktabida o'qiyotgan bu bolalar yangi O'zbekistonning kelajagi bunyodkorlaridir. Barcha umumta'lim maktablari ushbu o'quv dargohidan ma'naviyatni, ma'rifatni o'rganishi lozim. Chunki bu yerda tahsil olayotgan bolalar nafaqat ma'naviyatli, balki o'z vatanini yurakdan sevuvchi iste'dod egalari. Biz ijod maktablarida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilganmiz.



Ushbu sonda



Metodik tavsiya
O'quv lug'ati qanday
lug'at?

6
bet



Dars – muqaddas
Iskandar – adolatli shoh

14
bet



Tahlil
Ma'naviy kamolot ramzi

30
bet



Литературный
календарь
«Белый свет»
творчества А.П.Чехова

70
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 2-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nilufar Namozova

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Ehsan TURDIQULOV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,

(71) 233-03-10,

(71) 233-03-45,

(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalidan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 25.02.2020-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz biehimi 60x84 $\frac{1}{4}$. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Times" garniturasi. 10, 11 kegl. "SANO-STANDART" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Olmazor tum. Shiroq ko'chasi. Buyurtma 33. Adadi 4350 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

Samixon ASHIRBOYEV. O'zbek tili ta'limi metodikasining ayrim dolzarb masalalari	3
DOLZARB MAVZU	
METODIK TAVSIYA	
Bashorat BAHRIDDINOVA. O'quv lug'ati qanday lug'at?	6
Gulbahor RAHIMOVA, Muhayyo VAFOYEVA. Alisher Navoiy g'azalida frazemalar	8
Shahnoza RAHIMOVA. Ingliz idiomalari tarjimasida milliy va tarixiy o'ziga xoslik masalasi	10
DARS - MUQADDAS	
Nozima QORABOYEVA. Undalmalar uslubiyati	12
Nasiba BOZOROVA. Iskandar - adolatli shoh	14
Adiba BEKCHANOVA. Qaroqlarda qotgan ikki tomchi yosh	17
Shodiyor PO'LATOV, Muhayyo HAMIDOVA. Tug'lgansan ozod, mudom ozod bo'lib qol!	19
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Nurjamol NORMATOVA. Og'zaki nutqni rivojlantirishda "Hamkorlikda ishlash" texnologiyasi	21
TAHLIL	
Botir TOJIBOYEV. "O'zbek tili assosiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar)" materiallarining lingvistik tahlili	23
Abdumurod NOMOZOV. Matndagi iboralarni aniqlash va ularning xususiyatlarini yozma izohlashga o'quvchilarni o'rgatish	25
Zuhra NOSIROVA. XX asr yapon nasri tendensiyalari	27
Gavharoy ISMOILOVA. Xurshid Do'stmuhammadning "Donshmand Sizi!" romanida ramz va psixologik tasvir	28
Bahodir JOVLIYEV. Ma'naviy kamolot ramzi	30
TADQIQOTLAR	
Behzod TURNIAZOV. Kauzal ma'noning klassik davrda o'rganilishi	32
Unida RASHIDOVA. O'zbek tilida somatik frazeologik sinonimlarning uslubiy tarmoqlanishi xususida	35
Dilnoza MAMIROVA. Reklama matnlarida segment qurilmalarning o'ziga xos xususiyatlari	37
KICHIK TADQIQOT	
Zarif QUVONOV. Tabarruk izlar izidan	39
Alifjon SAFAROV. Qizil askarlar gazetasi nega o'zbekchadan saboq bergan?	41
Jamoliddin YOQUBOV. "Masnaviy"ning ma'naviy mazmuni	43
Nilufar RAXMATOVA. Alisher Navoiyning "Xamsa" asarida yashil rang ta'limi	44
Sayyora XALDARCHAYEVA. Ingliz va o'zbek tillarida bog'lovchi fe'llarning kategorial semantikasi	45
TAVSIYA	
Abdunazar JO'RAYEV. Bo'lajak gid-tarjimonlarning lingvo-professional kompetensiyasini shakllantirish	48
METODIKA. ОПЫТ	
Наргиза НАСЫРОВА. Интегрированный урок русского языка и музыки	49
ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ	
Насиба НИЯЗОВА. Использование страноведческих текстов при обучении русскому языку студентов-юристов	51
Дилдора ТОЛИПОВА. Методика работы с текстами при обучении русскому языку студентов юридических специальностей	53
ЯЗЫКОЗНАНИЕ	
Фахриддин АБДУРАХМАНОВ. Семантический и синтаксический анализ падежных значений в русском и узбекском языках в аспекте дистрибутивно-трансформационной грамматики	55
Камилла ХАСАНОВА. Этнографизмы, обозначающие узбекские реалии в текстах английского языка	56
ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ	
Майя ЭМ. Типологические основы фразеологических единиц в кратком немецко-узбекском фразеологическом словаре (КННФС)	59
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ	
Номира УСМАНОВА. Реальность и миф в творчестве Чингиза Айтматова и Тимура Пулатова	60
Агата ОСИПОВА. Функционирование типов «условного» и «реального» авторского начала в современном русском рассказе	61
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ	
Ирина ПАНФЕРОВА. Реализация современных научно-методических направлений подготовки педагогических кадров	63
Татьяна ПОЛОВИНКИНА. Изучение романа Дины Рубиной «На солнечной стороне улицы»	66
ЛИТЕРАТУРНЫЙ КАЛЕНДАРЬ	
Наталья ПЕТРУХИНА. «Белый свет» творчества А.П.Чехова	70
ПАМЯТИ ПОЭТА	
Гульнора МАНСУРОВА, Ирода САЙДАЛИЕВА. Хамид Алимжан и Зульфия	72
ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ	
Наргиза НЕМАТОВА. Социокультурный компонент - основа формирования социокультурной компетенции	74
Малика ПАРПИЕВА. О проблемах переводов медицинской терминологии	76
ВНЕКЛАССНОЕ МЕРОПРИЯТИЕ	
Нилуфар МУЛЛАХУНОВА. Создание условий для билингвизма как феномена современности	78

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashr.



REDMI NOTE 8

AI QUAD CAMERA

jurnali

"Xamsa"da yashil rang tasviri ikki xil ma'noda qo'llangan:

- 1) yashil o'z ma'nosida, ya'ni maysa, sabzarang;
 - 2) ko'k, ya'ni zangori (osmon va suv ma'nosida).
- Bundan tashqari yashil rang qatnashgan baytlar tashlini ham ikki jihatdan farqlashimiz mumkin:
- 1) yashil rangga o'xshatishlar, qiyoslar;
 - 2) yashil rangni ifodalovchi vositalar.
- Masalan, Navoiy bir o'rinda:

*Silur-u yashm yuz ming bul ajib zarf,
Ki har birga hiroji mulk o'lub sarf, —*

(Silur va yashil tusli toshning bir-biridan ajoyib yuz ming xil bo'lib, har birida bitta mamlakatning xiroji mujassam edi), deya yashil rangni o'z ma'nosida qo'llasa, boshqa bir o'rinda:

*Bo'lub may shirasidin otash angez
Bemb ul o'tqa taskin qursi kashnez, —*

(May shirasidan badani qizib ketganlar o'z o'tlarning taftini bosish uchun kashnichli kulchalar yerdilari) deydi. Bu yerda kashnich (kenza — xushbo'y hidli ko'kat) yashillik ma'nosidagi vosita tarzida qo'llangan. Qolaversa, yashil rang qizillik bilan qarshilantirilgan. Professor Boqijon To'xliyev o'zining "Qutadg'u biligda rang ramziga doir" nomli maqolasida bu ikki rangning

qarshilantirilganligi haqida juda ko'p ilmiy ma'lumotlarni keltirgan.

Kichik tadqiqot

"Xamsa"dagi ranglar taqini haqida so'z yuritilgan. "Sab'ai sayyor" dostoniga alohida to'xtalib o'tish shart. Bu dostonning uchinchi kuni, ya'ni dushanba kuni-dagi voqealarning sarlavhasi quyidagicha ifodalangan: "Dushanba kuni Bahromning quyidagicha monand axzar libos bila gumbazi axzorga yuz qo'yg'oni..." Bu yerda endi hamma narsa yashil rangda ifodalangan. Yashil qasr, yashil libos, shahrisabzlik sayyor (Shahrisabz — yashil shahar) va hokazo. Bu iqlim homiysi yashil rang tarqatuvchi Oydir. Dushanba kuni ham uning nomi bilan bog'liq. "Qadimgi bobilliklar o'zlarining zikkuratlari, ya'ni ibodatxonalarini yetti zinapoya shaklida qurib, ularning devorlarini ham yetti rangga bo'yaganlar. Yevropa kalendaridagi hozirgacha saqlanib qolgan hafta kunlarining yetti sayyora bilan bog'liqligi haqidagi tushunchalar Bobil astrologlarining ta'limotiga borib taqaladi. Masalan, shanba inglizchada "sat(r)dey", ya'ni Saturn kuni; Yakshanba "sande", ya'ni Quyosh kuni; Dushanba "mondey" Oy kuni deb ataladi".

Umuman olganda, yashil rang sufiy ta'limotida ulug' ranglardan biri hisoblanadi. Diniy ta'limotlarimizga ko'ra ham yashil rang — shahidlik ramzidir!

Sharq xalqlarining tasavvurlarida bu rang hayot ramzi, u samoviy mavjudotlar bilan bog'lanadi. Yashil rang, shuningdek, o'tmish bilan kelajak timsoli vazifasini ham bajargan.

¹O'zbek tili va adabiyoti jurnali // 2001-yil 3-son, 20-bet.

²A.Navoiy. Saddi Iskandariy. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyoti, 1991, 686-bet.

³L.Haqqulov. Zanjirband sher qoshida. — Toshkent: Yulduzcha, 1989. 78-bet.

⁴Saidbek Hasanov. Navoiyning yetti tuhfas. 1991-yil. 3-bet.

Sayyora XALDARCHAYEVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
tarix va tillar fakulteti Fakultetlararo chet tillar
kafedrasini o'qituvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BOG'LOVCHI FE'LLARNING KATEGORIAL SEMANTIKASI

Hozirgi kunda chet tillarni o'rganish va o'rgatishga katta e'tibor qaratilayotgan bir paytda tilshunoslik sohasida olib borilayotgan ishlar ham o'z ahamiyati va salohiyati bilan ajralib turadi. Ma'lumki, til jamiyatining, mamlakatning qay darajada rivojlanganligini ko'rsatuvchi omildir. Til orqali xalq dunyoga taniladi. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida mustahkam o'z o'rniga ega bo'lishida qaysidir ma'noda tilning ham ahamiyati beqiyosdir. Mamlakatimizda so'nggi yillarda fan va ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilishi tad-

qiqotchilar oldiga tilshunoslikning nazariy va amaliy sohalarida mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda.

Ingliz tilini yanada yaxshiroq o'rgatish va o'rganish uchun bir qancha metodlar va tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ingliz tili grammatikasi muammolari, jumladan, undagi fe'l masalasi ko'pchilik grammatiklar tomonidan har tomonlama ishlab chiqilgan. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, inglizcha fe'llarga xos grammatik kategoriyalar hamon tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib kelmoqda. U bir qancha tilshunos olimlar, jumladan, V.D.Arakin,

E. Benvenist, V.G. Gak, B.A. Ilish, T. Milevskiy, F. de Sossyur, N. Chomsky kabi tilshunoslarning olib borgan ishlarida tadqiq qilingan. Ingliz va o'zbek tillarida bog'lovchi fe'llar va ularning kategorial semantikasini solishtirish va ularni qiyoslash tillarni o'rganish uchun muhim hisoblanadi. Fe'l mustaqil so'z turkumi bo'lib, harakat, holat, jarayonni ifodalaydi va zamon, aspekt, mayl, nisbat, perfekt, modallik va boshqa shu kabi kategoriyalarga ega so'z turkumidir. Har ikkala tilda ham bog'lovchi fe'llar mavjud. Ingliz tilida bog'lovchi fe'llar *linking verbs* yoki *copular verbs* deb ataladi. O'zbek tilida esa bog'lovchi fe'llar aynan bog'lovchi fe'llar deb atalmaydi. Ya'ni o'zbek tilida bog'lovchi funksiyani fe'l shakllaridan ravishdosh, bog'lama fe'l vazifasini o'tovchi ba'zi bir fe'llar va to'liqsiz fe'llarda kuzatish mumkin.

Ingliz tilidagi bog'lovchi fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari

Ingliz tilida bog'lovchi fe'llar fe'lning kichik sinfini tashkil etib, ular o'zlaridan keyin komplement to'ldiruvchini talab qiladi. Bog'lovchi fe'llar egani o'zi ifodalayotgan frazaga, ya'ni aniqroq aytadigan bo'lsak, komplementga (to'ldiruvchiga) bog'laydi. Ko'pgina olimlar ot va olmoshlarning aynan bog'lovchi fe'llar yordamida bog'lanishini e'tirof etganlar. Ammo shu narsaga e'tibor berish kerakki, olmosh yoki otlar aynan bir xil kelishikda bo'lishi shart. Masalan: *It is I* yoki *It is me*. Bog'lovchi fe'llar (ba'zi olimlar bu fe'llarni kopulativ yoki yordamchi fe'llar ham deb atagan) o'timsiz fe'llarning maxsus sinfini tashkil etadi. Odatda bu fe'llar o'zgaruvchan substantivni boshqasi bilan tenglashtiradi, aniqlashtiradi yoki birlashtiradi. U gapda egani to'ldiruvchi, kesim bilan bog'laydi. Boshqa o'timsiz fe'llar kabi bog'lovchi fe'llar qatnashgan gaplarda ham doimo vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etadi. Ingliz tilida bunday fe'llarga "is" yoki "become" fe'llarining har qanday shaklini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Masalan: *"The words which I have spoken into your spirit are alive."*

Bu gapda shunga e'tibor berish kerakki, "words", "spirit" va "life" otlari "are" yordamchi fe'li orqali tenglashtirilyapti. Boshqacha qilib aytganda, "words" so'zi "spirit" va "life" so'zlariga to'g'ri mutanosibdir. Ingliz tilida kopulativ fe'llar juda oz miqdorni tashkil etadi, lekin ularning ba'zilari juda muhim bo'lib, tilda juda ko'p qo'llaniladi. Bog'lovchi fe'llar gapda ega va komplementni bir-biriga mustahkam bog'laydi. Bu munosabatni "bog'lash" yoki "tenglashtirish" sifatida talqin qilganimizda ham uning to'liq ta'rifi keltirmagan bo'lamiz. Biz bu munosabatni to'liq ifoda etadigan birorta so'z topa olmagan bo'lsakda, lekin ba'zi tilshunolar buni "intensiv aloqa" deya ta'riflaydi. Balki buni misollarda ko'rsatish osonroqdir. Masalan:

1. George Bush is the president of the USA.
2. Ice feels cold.
3. Caesar became an Emperor.
4. He seems nice.

Bu misollardagi fe'llar o'timli fe'llarga yaqin, ya'ni birinchi va uchinchi gaplardagi fe'llarning vositali to'ldiruvchi otlari har xil. U yerda hech qanday harakat mavjud emas. Ikkinchi va to'rtinchi gaplarda esa to'ldiruvchi (cold, nice) otli fraza bo'lib kelmayapti. Bog'lovchi fe'llarda ikkinchi qism vositali to'ldiruvchi deb ataladi. Ammo ingliz tilida fe'llarning kesishish kategoriyalari mavjud. Masalan:

1. I think, therefore I am.
2. I am cool.

Birinchi gapdagi "am" o'timli fe'l, ikkinchi gapdagi "am" esa bog'lovchi fe'l bo'lib, u "am" ikki xil ma'noda ishlatilyapti. Semantikasiga ko'ra bog'lovchi fe'llar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- a) substantiv bog'lovchi fe'llar: *be, resemble, earn, lack, be fall, weight, cost, suit, last, amount;*
- b) "have" turidagi fe'llar;
- d) "bo'lmoq, paydo bo'lmoq"ga doir bog'lovchi fe'llar: *become, remain, get, turn, go, grow;*
- e) faraz yoki ko'rishga doir fe'llar: *seem, look, appear, feel, sound, taste, smell.*

Bog'lovchi fe'llar sintaktik xususiyatiga ko'ra, mustaqil, yordamchi, bog'lovchi, modal fe'l vazifasida kelishi mumkin. Agar fe'l leksik ma'nosini yo'qotib, bog'lovchi fe'l vazifasida kelsa, bu jarayon grammatizatsiya (grammatiklashuv) jarayoni deyiladi. Grammatiklashuv tufayli bog'lovchi fe'lning ma'nosi umumlashib, mavhumlashib ketadi va predikativ vazifasida kelgan so'z kesimning asosiy leksik ma'nosini anglatadi. Ingliz tilida bunday fe'llar sirasiga *to be, to have, feel, get, go* kabi fe'llar. *To be* fe'li bog'lovchi fe'l vazifasida kelgan predikativning grammatik kategoriyalariga bo'lgan aloqasini ko'rsatib keladi, ya'ni zamon, mayl, shaxs, son *to be* yordamida berilishi mumkin. Bu vazifada kelgan *to be* fe'li quyidagi so'z turkumlari bilan birikishi mumkin:

To be + adjective (sifat). Masalan:

No-no Watson, I will not admit that it is possible.

To be + noun (ot). Masalan:

Was not that person the actual criminal.

To be + pronoun (olmosh). Masalan:

"Who are they?" asked Hurstwood.

To be + adverb (ravish). Masalan:

It was long ago.

To be + numeral (son). Masalan:

He had left when he was fifteen.

To be + participle II (sifatdosh II). Masalan:

Yes, I was surprised to hear that she had it in her hand when she died.

To be + participle I (sifatdosh I). Masalan:

The moment was soothing to his sore spirit.

To be + gerund (gerundiy). Masalan:

My favourite sport is swimming

To be + infinitive (harakat nomi). Masalan:

The best thing he could do was to get out of here.

To be fe'li infinitiv shaklidagi fe'l bilan birikib modallikni bildiradi. Asosiy fe'l vazifasidagi fe'l *to be* yor-

amida avval rejalashtirilganlik, qat'iy man qilinganlik, bo'yunganlik, majburiylikni anglatadi.

O'zbekcha bo'glovchi fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbek tilida ham, ingliz tilidagidek, bog'lovchi fe'llar mavjud, lekin o'zbek tilida bunday fe'llar aynan bog'lovchi fe'llar deb atalmaydi. Ya'ni o'zbek tilida bog'lovchi fe'llar shakllaridan ravishdosh, fe'l vazifasini o'lovchi ba'zi bir fe'llar, to'liqsiz fe'llarda kuzatishimiz mumkin. Bunday fe'llarning asosiy vazifalaridan biri ergash gapni bosh gapga bog'lash. Bog'lama fe'l bo'lmagan so'zni fe'lga xos ma'no va vazifaga moslovchi yordamchi fe'l hisoblanadi. Masalan:

Aziz shifokor bo'ldi.

Aziz shifokor bo'lyapti.

Aziz shifokor bo'lmoqchi.

Gaplarda "bo'l" yordamchisi "shifokor" so'zi bilan qo'llanilib, mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarining ifodalanishi uchun xizmat qilyapti. Bog'lama vazifasini bajaruvchi birlik o'z leksik ma'nosini qisman saqlashi yoki faqat bog'lama vazifasini bajarishi mumkin. Shunga ko'ra bog'lamaning 2 turi farqlanadi:

1) sof bog'lama;

2) yarim bog'lama.

Leksik ma'nosini yo'qotgan, sof grammatik funksiya bajaruvchi bog'lama sof bog'lama deyiladi. Ularga *edi*, *ekan*, *emish* kabi to'liqsiz fe'llar kiradi. Leksik ma'nosini tamomila yo'qotmagan, ma'lum darajada saqlagan bog'lama yarim bog'lama deyiladi. Masalan: *hisoblandi*, deyiladi, *bo'l* so'zlari leksik ma'nolarini ma'lum darajada saqlagan holda bog'lama funksiyasida qo'llaniladi. Masalan:

Dissertatsiyani yoqladi, fan nomzodi bo'ldi.

Bu yigit fabrikamizning ilg'or ishchilaridan hisoblandi.

Fe'l shakllaridan ravishdosh gapda bog'lovchi fe'l vazifasida keladi va, shu bilan birga, fe'lning qandaydir shakli o'mida qo'llaniladi. Masalan: *Keksa usta Kuznetsov o'z shogirdlaridan faxrlanib, u ham yaxshi tilaklar bilan bir-ikki so'z aytdi-da, Omonovga o'rin berdi (boxon)*. Misoldagi "faxrlanib" shakli o'mida "faxrlanib" shaklini qo'llash mumkin. Demak, "faxrlanib" shaklidagi *-ib* ravishdosh yasovchisi, *-di* affiksi bilan *-da* bog'lovchisi xos vazifada qo'llanilyapti. To'liqsiz fe'l sifatosh, ravishdosh va harakat nomlariga birikib, fe'l zamonlarining analitik usul bilan yasalgan shakllarini hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Hojiyev. Lingvistik terminlarning izohli lugati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
2. J.Bor'onov. Ingliz va o'zbek tillar qiyosiy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1973. 180-bet.
3. G. Abdurahmonov, Sh. Shoabdurahmonov, A. Hojiyev. O'zbek tili grammatikasi. Tom I. Morfologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 1975. 516-bet.
4. A.G'ulomov, M.Asqarov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.
5. M.G'apbarov. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon – iqbol, 2006.

Kids' English 1



Kichik tadqiqot

Shuningdek, boshqa so'z turkumlari bilan kelib, bog'lama vazifasini bajaradi.

"Edi" to'liqsiz fe'li boshqa so'z turkumlari bilan kelsa, tuslovchi, affiks olib, ot kesimning bog'lama vazifasida keladi. Masalan: *Xaritonov ashulani ham, gapni ham qoyil qilar, umuman, juda yoqimtoy yigit edi*.

"Ekan" shakli sifatosh bilan birga voqea-hodisaning keyin ma'lum bo'lganligi, holat, payt, sabab ma'nolarini ifodalaydi va bog'lama fe'l vazifasida keladi. Masalan: *O'ylab qarasa, Ertoyev unga qattiq gapiradigan holatda emas, tili qisiq ekan*.

"Emish" shakli bog'lama vazifasida kelganda eshitganlik, gumon, noaniqlik ma'nolarini bildiradi. Masalan: *Shu yerda bir muddat dam olishimiz kerak, boradigan qishlog'imiz hali ancha olis emish*.

Bundan tashqari "demoq" fe'lidan "deb" ravishdoshi yasalganda, "deb" ravishdoshi bog'lovchi vazifasida kelib, ergash gaplarning ba'zilarini, ya'ni shart, ma'kelib, ergash gaplarini bosh gapga bog'laydi. qsd, sabab ergash gaplarini bosh gapga bog'laydi. J.B.Bor'onov o'zbek tilida ham bog'lovchi fe'llar bor, deb takidlaydi va ularga *bo'lmoq*, *ko'rinmoq*, *o'xshamoq*, *tuyulmoq* va boshqa fe'llarni kiritadi.

O'zbek tilida *-moq* to'liqsiz fe'li bo'lib, uning *edi* ekan, *emish*, *emas*, *esa* kabi shakllari mavjud. Bu fe'l mustaqil ravishda qo'llanilmaydi; harakat ma'nosiga ega emas. U turli ma'nolarni ifodalaydi va turli grammatik vazifalarda qo'llaniladi. Bu fe'l otlar bilan ham, fe'llar bilan ham qo'llaniladi.

Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillari bog'lovchi fe'llari ikki tilda ham umumiy va o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, gapning ma'nosiga qarab ularni o'z o'rnida ishlatish lozim.

2020-yil 2-son